

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING  
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**TASDIQLAYMAN**  
Denov tadbirkorlik va  
pedagogika instituti rektori  
*O.A. Ruziyev* O.A. Ruziyev  
" 30 " 01 2026 - yil

**ILMIY-TEXNIK TADQIQOT KENGASHI TO‘G‘RISIDA**

**NIZOM**

**DENOV – 2026**

## Ilmiy-texnik tadqiqot kengashi to'g'risida

### NIZOM

Mazkur Nizom Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida sifatni ta'minlash haqidagi nizom talabalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Nizom Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida (keyingi o'rinlarda DTPI) Tadqiqot kengashining maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari hamda uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

#### I. Umumiy qoidalar

1. Kengash Institut kengashiga DTPIda tadqiqot olib borish siyosati va mazkur yo'nalishdagi ustuvor vazifalar bo'yicha tavsiyalar berish, tadqiqot ishlarining sifati ustidan nazoratni amalga oshirish, ta'lim jarayonini ilmiy materiallar bilan ta'minlashni amalga oshirish, ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, universitet professor-o'qituvchilari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari, talabalarining ilmiy tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ hisoblanadi.

2. Kengash DTPI Tadqiqot etikasi kengashining huquqiy vorisi hisoblanadi hamda normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarda Ilmiy-uslubiy kengash hamda Tadqiqot etikasi kengashiga yuklatilgan vakolat va vazifalarni bajaradi.

3. Kengash institutning 12 nafar tajribali professor-o'qituvchilari, 2 nafar faol talabalarning vakillari (1 nafar magistrant va 1 nafar bakalavriat talabasi), 1 nafar doktorantdan iborat tarkibda bir o'quv yili uchun shakllantiriladi. Shuningdek, qoida tariqasida, 2 nafar chet eldagi vatandoshlar Kengashda a'zo sifatida ishtirok etadi.

Kengash tarkibi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor tavsiyasiga ko'ra institut Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot kengashi raisi, qoida tariqasida, har o'quv yilining boshida mazkur kengashga a'zo institut professor-o'qituvchilari orasidan yashirin ravishda saylash orqali aniqlanadi.

Kengash faoliyatida prorektorlar, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari ovoz berish huquqsiz qatnashishlariga ruxsat etiladi.

Zarur hollarda, Kengash ishiga professor-o'qituvchilar (mualliflar), davlat ilmiy-texnik loyihalari rahbarlari ham jalb etilishi mumkin.

4. Kengash faoliyatini tashkil etishga doir hujjatlarni yuritish uchun Kengash a'zolaridan biri Kengash kotibi etib saylanadi.

5. Kengash a'zolari uning ishida jamoatchilik asosida ishtirok etadilar, Kengash a'zolari o'rnatilgan tartibda moddiy rag'batlantirilishi mumkin.

#### II. Kengashning vazifa va vakolatlari

6. Kengash quyidagi vazifalarni bajaradi:

Institutning ilmiy-tadqiqotni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqish va Institut kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etish;

Tadqiqot etikasi qoidalarini takomillashtirib borish;

Akademik halollik va tadqiqot etikasi kodeksi qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoring olib borish;

ilmiy jamoatchilik orasida tadqiqot etikasi qoidalarining mazmun mohiyatini keng targ'ib qilish va tegishli ko'nikmalarni shakllantirish yuzasidan tavsiyalar berish;

yuridik sohada ilmiy-tadqiqot ishlari, shu jumladan, dissertatsiya, monografiya va ilmiy maqolalar sifatiga qo'yilgan talablarni ishlab chiqish va e'lon qilish;

eng yaxshi dissertatsiya tanlovlarini o'tkazish;

monografiya, ilmiy maqolalar va innovatsion loyihalarni universitet va respublika tanlovlariga tavsiya qilish;

professor-o'qituvchilarni ilmiy unvonlarga tavsiya etish;

magistrlik dissertatsiyasi va ilmiy-tadqiqot mavzularini ekspertizadan o'tkazish;

ilmiy maktab va ilmiy to'garaklar faoliyatiga baho berish, reytingini e'lon qilish va rag'batlantirish bo'yicha universitet rahbariyatiga takliflar kiritish;

fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni ilmiy ekspertizadan o'tkazib, tanlovga tavsiya qilish;

ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini monitoring qilib borish, ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash va halol tadqiqot olib borishni rag'batlantirishga oid takliflar kiritish;

institutning ilm-fan va innovatsiyalarga oid siyosati bo'yicha taklif va tavsiyalar berish, boshqa muhim vazifalarini belgilash.

yuqori tijorat salohiyatiga ega va amalga oshirishga tayyor bo'lgan, o'zlashtirish uchun istiqbolli loyihalar bo'yicha tavsiya berish;

monografiyalar, risolalar, axborot-tahliliy materiallar, ilmiy sharhlar hamda konferensiyalar, ilmiy seminarlar, davra suhbatlari to'plamlari, va boshqa ilmiy ishlanmalarni uch oy muddat ichida ekspertizadan o'tkazish va chop etishga tavsiya etish;

professor-o'qituvchilar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasidan foydalanishini va ilmiy tadqiqot natijalarini xalqaro miqyosda keng nashr etish ishlarini monitoring qilish;

institut tarkibiy bo'linmalarining ilmiy yo'nalishdagi o'zaro hamkorligini tahlil qilish hamda institut ilmiy faoliyatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

dotsent va professor ilmiy unvonlariga talabgorlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini o'rganish hamda ularni institut kengashiga tavsiya etish;

davlat ilmiy-texnik tadqiqotlari yuzasidan tayyorlangan hisobotlarni eshitish;

Tadqiqot etikasi qoidalarini buzgan, ilmiy ishlanmalar yaratishda plagiat qoidalariga rioya qilmagan mualliflar (talabgorlar) xatti-harakatlariga baho berish;

doktorantlar, mustaqil izlanuvchilarning doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlashning yakka tartibdagi shaxsiy ish rejalarini, mutaxassislik bo'yicha nazariy-metodologik kursning o'quv rejasini, doktoranturaga kirish imtihon savollarini, malakaviy imtihon dasturlarini, malakaviy imtihon savollarini ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash uchun institut kengashiga kiritish;

ilmiy tadqiqot faoliyati natijalarini amaliyotga joriy etgan va yuqori samaralarga erishgan (tijoriylashtirgan) professor-o'qituvchilar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha institut rektoriga tavsiya kiritish.

Kengash qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

### III. Kengash ishini tashkil qilish

7. Kengashning ish rejasi o'quv yili uchun tuziladi hamda Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

8. Kengash ish rejasi bajarilishi ustidan umumiy nazorat Kengash raisi tomonidan amalga oshiriladi.

9. Kengash ish rejasining bajarilishi bo'yicha ma'lumotlar Kengash kotibi tomonidan umumlashtirib boriladi.

10. Kengash ish rejasiga muvofiq kengash majlisi kun tartibiga kiritilishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan barcha zarur materiallar taqdim etilgach, Kengash kotibi majlis kun tartibi loyihasini tuzadi va tasdiqlash uchun Kengash raisiga taqdim etadi.

11. Kengash majlisi o'tkaziladigan kun, vaqt va joy, shuningdek kun tartibi Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

12. Kengash majlisi kun tartibi Kengash majlisidan uch kun oldin a'zolarga va Kengash raisining topshirig'iga muvofiq boshqa shaxslarga yetkazilishi lozim. Kengash a'zosi navbatdagi majlisda uzrli sabablarga ko'ra qatnasha olmagan taqdirda, bu haqida Kengash kotibini darhol xabardor qilishi shart. Kengash majlislari zaruratga qarab o'tkaziladi. Kengash majlislari videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishi mumkin. Kengash majlislarida muhokama qilinadigan masalalar yuzasidan Kengash a'zosi bo'lmagan institut prorektorlari, tarkibiy bo'linma rahbarlari hamda boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalarining malakali mutaxassislari ham taklif qilinishi mumkin. Kengash faoliyatiga belgilangan tartibda

hamkor xorijiy tashkilotlarning, xususan, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yetakchi olimlari va malakali mutaxassislari taklif etilishi mumkin.

13. Kengashga uning a'zolari orasidan yashirin, oddiy ko'pchilik ovoz berish yo'li orqali saylanadigan rais boshchilik qiladi. Kengash raisi yo'qligida uning vazifasini Kengash raisi o'rinbosari amalga oshiradi.

14. Kengash majlisida uning a'zolarining kamida yarmi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Kengashda ovoz berish jarayoni, qoida tariqasida, ochiq o'tkaziladi. Kengash a'zolarining taklifi bilan muayyan masalalar yashirin ovoz berish yo'li bilan ovozga qo'yilishi mumkin.

15. Kengash majlisida ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha oddiy ko'pchilik ovoz bilan qarorlar qabul qilinadi. Kengash a'zosi o'ziga yoki tadqiqot guruhiga tegishli masalalar muhokama qilinganda qaror qabul qilish jarayonida betaraf hisoblanadi.

16. Kengash majlisida Kengash kotibi tomonidan bayonnoma yuritiladi. Kengash majlisida muhokama qilingan barcha masalalar, bildirilgan taklif va mulohazalar Kengash majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim.

17. Kengash majlisi bayonnomasi besh ish kuni ichida Kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanishi lozim.

18. Kengash a'zolari va yuqori ilmiy salohiyatga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va iqtidorli talabalar tarkibidan dolzarb ilmiy-uslubiy vazifalarni hal etish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqadigan ishchi va ekspert guruhlar tashkil etilishi mumkin.

*Mazkur nizom institut 2026-yil 30 -yanvardagi 6 -son kengashi majlisining bayonnomasiga asosan shakllantirilgan.*